

KULOLCHILIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHIGA OID BA'ZI YONDASHUVLAR XUSUSIDA

Bobir Odilov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda an'anaviy kulolchilik maktablarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati antropologik hamda etnologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kulolchilik fenomenini o'rganishda xo'jalik-madaniy tiplar konsepsiyasi, genealogik (ustoz–shogird va sulolaviy) yondashuv hamda og'zaki tarix (Oral History) metodining ilmiy imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, kulolchilik maktablarining hududiy va shaxsiy tasnifi, ustoz-shogird an'alarining hunar davomiyligidagi o'rni, kasbiy bilim va ko'nikmalarning avloddan-avlodga o'tish mexanizmlari amaliy misollar bilan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kulolchilik, kulolchilik maktablari, xo'jalik-madaniy tiplar, ustoz–shogird an'anasi, genealogik yondashuv, og'zaki tarix, etnomadaniy jarayonlar, hunarmandchilik, madaniy meros, lokal maktablar, identitet, an'anaviy hunar.

ON SOME APPROACHES TO THE STUDY OF THE POTTERY PHENOMENON

ABSTRACT

This article analyzes the formation, stages of development, and socio-cultural significance of traditional pottery schools in Uzbekistan based on anthropological and ethnological approaches. The study reveals the scientific potential of the economic-cultural types concept, the genealogical (master–apprentice and dynastic) approach, and the Oral History method in examining the phenomenon of pottery. The article also analyzes, through practical examples, the territorial and personal classifications of pottery schools, the role of master–apprentice traditions in the continuity of the craft, and the mechanisms of transmitting professional knowledge and skills from generation to generation.

Keywords: pottery, pottery schools, economic-cultural types, master–apprentice tradition, genealogical approach, oral history, ethnocultural processes, craftsmanship, cultural heritage, local schools, identity, traditional craft.

KIRISH

O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan ishlab chiqarish xo'jaligi rivojlanganligi arxeologik tadqiqotlardan ma'lum. Yirik daryo vohalari, uning irmoqlari bo'yidagi hosildor yerlar ajdodlarimiz tomonidan doimiy ravishda o'zlashtirib borilib, ilk bronza davrlaridanoq sun'iy sug'orma dehqonchilik xo'jaligiga asos solingan¹. Shu bilan birgalikda turli ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik hamda siyosiy omillar ta'sirida vohalar bilan tutash keng dashtliklarda yashaydigan ko'chmanchi chorvador aholining doimiy ravishdagi migratsiyasi natijasida daryo vohalarida sug'orma dehqonchilik bilan birgalikda yirik chorvachilik xo'jaligi ham rivojlana boshladi. Agrar munosabatlardagi bunday o'zgarishlar hunarmandchilik va savdoning rivojlanishida muhim omil bo'lib, etnik-madaniy aloqalarni yanada jonlantirdi². Natijada O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududlarida xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik hamda hunarmandchilik turlari bir xil ahamiyatga ega bo'ldi. Xo'jalikning ushbu turlari asrlar davomida u yoki bu xalqlarning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy hayotiga ham ta'sir qildi.

Turli xo'jalik sohalarining bir vaqtning o'zida, bir mintaqada parallel ravishda rivojlanishini va o'ziga xos lokal ko'rinishlar kasb etganligini olimlar "xo'jalik-madaniy tiplar"³ nomi bilan atay boshladilar. Ushbu konsepsiya xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi tabiiy sharoitga moslashgan holda shakllangan turlarini xo'jalik-madaniy an'analar bilan uzviy bog'liq holda, turli tarixiy-madaniy mintaqalarning o'ziga xosligini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik-madaniy tiplar konsepsiyasining mohiyati nima va qachondan boshlab ilmiy tadqiqotlarda qo'llanila boshlandi kabi savollarga javob berish orqali kulolchilik maktablarining shakllanish omillari, lokal mintaqalarga xos xususiyatlarining aks etishi kabi nazariy masalalarni ochib berish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Muammoga oid dastlabki tadqiqotlar umuman jahon xalqlarining xo'jalik klassifikatsiyalariga bag'ishlangan bo'lib, uning negizida O'rta Osiyo xalqlarining xo'jalik xususiyatlari va uning boshqa mintaqalardagi xo'jalik turlari ham qiyosiy asosda yoritilgan. XX asr oxirlarigacha bajarilgan ishlar⁴ O'zbekistonning turli

¹ A. Asqarov Drevniy zem

² U. Abdullayev Etnoslararo jarayonlar

³ Хўжалик-маданий типлар деганда муайян табиий-географик шароитда ва ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг бир хил даражасида яшовчи халқлар учун характерли бўлган хўжалик ва маданиятларнинг тарихан таркиб топган мажмуи тушунилади.

⁴ Толстов С.П. Очерки первоначального ислама. // СЭ. 1932. №2 с. 24-82; Толстов С.П. Очерки общей этнографии. Азиатская часть СССР. В издании Ин-та этнографии АН СССР. М., 1959, 163-164 бетлар.; Левин М.Г. К проблеме исторического соотношения хозяйственно-культурных типов Северной Азии, «Краткие сообщения Ин-та этнографии АН СССР», II, 1947; Левин М.Г., Чебаксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные

tarixiy-madaniy mintaqalari lokal xususiyatlarini o'rganishda nazariy-metodologik asos bo'ldi, deb aytish mumkin.

Jahon xalqlari xo'jalik ixtisoslashuvini ilk bor turli madaniy-etnografik viloyatlarga bo'lib o'rganish g'oyasini dastlab taniqli olim S.P. Tolstov o'zining "Islomning dastlabki ko'rinishi"⁵ nomli maqolasida qo'llagan. Aslida olimning ushbu maqolasida asosiy maqsad xalqlarning xo'jalik hayotida islom dinining o'rni masalasini yoritish bo'lsa-da, xalqlarning xo'jalik an'analarida ularning tabiiy-geografik jihatdan joylashuv xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos tafovutlar ham mavjudligini yangi metodologik usul yordamida ko'rsatib berishga harakat qiladi. Bu xo'jalik-madaniy tiplar konsepsiyasining ilk g'oyalari edi.

Muallif g'oyalarining aniqroq tafsilotiga to'xtalsak, maqolada qadimgi davr tarixiga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan bo'lib, materiallarda Janubiy Amerika, Bolqon va Kavkazorti, Shimoliy Misr, Yuqori Mesopotamiya va Elam, O'rta Osiyo, Kopetdog' etaklari va Xitoyning tog'li hududlari xalqlari tomonidan yaratilgan xo'jalik-madaniy tiplar haqida fikr bildirilgan. Fikrlar tahlilidan ushbu xalqlarning xo'jalik madaniyatidagi o'ziga xoslik tabiiy omil ta'sirida, o'xshashliklari esa madaniy migratsiya ta'sirida yuz berganligini anglash mumkin. Tadqiqotchining fikrini birgina misolda ko'rib chiqsak, o'ylaymizki, yanada tushunarliroq bo'ladi. Xususan, muallifning fikricha, qadimgi Yevroosiyo qit'asida yaratilgan kulolchilik buyumlari va ushbu sopollarga rang berishdagi o'xshashliklar zahirida madaniy migratsiyaning o'rni seziladi. Lekin sopol buyumlarni tayyorlash va bo'yashda qo'llaniladigan xom ashyo (tuproq, bo'yoq turi va shu kabi) va boshqa tabiiy omillar har bir mintaqada takrorlanavermaydi. Shu sababdan ham har bir mintaqaning tabiiy sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqarilgan mahsulotda o'ziga xoslik shakllanganligini kuzatishimiz mumkin⁶.

Xo'jalik-madaniy tiplar nazariyasi O'rta Osiyo arxeologiyasi, etnologiyasi va antropologiyasida katta ilmiy ahamiyat kasb etdi. Uning asosida har bir mintaqada dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning o'ziga xos ko'rinishlari qayd etildi. Moddiy madaniyat, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida xo'jalik turlari asosiy omil sifatida qaraldi. Turli xo'jalik turlariga tayangan xalqlar

типы и историко этнографические области (К постановке вопроса). СЭ. 1955, №4, Б. 3-17.; Жданко Т.А. Проблема полуседлого населения в истории Средней Азии и Казахстана. // СЭ. М.,1961. №2. 53-62 бетлар; Андрианов Б.В. Хозяйственно-культурные типы Средней Азии и Казахстана. // Народы Средней Азии и Казахстана". Т. I. М., 1963. С. 32-37.; Андрианов Б.В., Чебоксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные типы и исторический процесс // СЭ.-1968. -№2. -С.22-34.; Чеснов Я.В. О социально-экономических и природных условиях возникновения хозяйственно-культурных типов (в связи с работами М.Г.Левина)//СЭ. -1970. №6., с. 15-26.; Андрианов Б.В., Чебоксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные типы и проблемы их картографирования. СЭ. №2, М.Наука, 1972. 3-16 бетлар.

⁵ Толстов С.П. Очерки первоначального ислама. // СЭ. 1932. №2 с. 24-82.

⁶ Толстов С.П. Кўрсатилган асар. с. 24-82.

oʻrtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar etnik jamoalarning shakllanish jarayonlarini tahlil qilishga yordam berdi.

Kulolchilik maktablarini oʻrganishda ham xoʻjalik-madaniy tiplar ilmiy konsepsiyasini qoʻllash ahamiyatli hisoblanib, muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Sababi, kulolchilik dehqonchilik madaniyati bilan bogʻliq hisoblangan suv resurslari, xom ashyo manbalari (loy, qum, minerallar) va qishloq xoʻjaligi ehtiyojlari (idishlar, xumlar, saqlash anjomlari) bilan chambarchas aloqador. Xususan, don mahsulotlarini saqlash, suv tashish, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va isteʼmol qilish uchun turli idishlarga ehtiyojni yuzaga keltirgan. Shu bois qadimgi kulolchilik mahsulotlarining katta qismi xum, tovoq, kosa, lagan va suv idishlari kabi maishiy anjomlardan iborat boʻlgan. Voha va dasht oʻrtasidagi aloqalar kulolchilik mahsulotlariga talabni oshirib, savdo almashinuvini jonlantirgan. Kulollar mahsulotining faqat uy xoʻjaligi ehtiyoji bilan chegaralanib qolmasdan, ichki va tashqi bozorlarda muomalaga kirib borishi maktablarning rivojlanishiga turtki boʻlgan.

Oʻzbekiston hududida tabiiy-geografik sharoitlarning rang-barangligi va mahalliy madaniy anʼanalarning xilma-xilligi natijasida bir nechta kulolchilik maktablari shakllangan. Sanʼatshunoslikka oid koʻplab tadqiqotlarda bu maktablar odatda yirik hududiy masshtablarda tasniflanadi. Jumladan, Fargʻona maktabi (asosiy markazlari – Rishton, Andijon, Gʻurumsaroy), Buxoro-Samarqand maktabi (markazlari – Samarqand, Gʻijduvon, Shahrisabz, Urgut) va Xorazm maktabi (markazlari – Xonqa, Kattbogʻ, Xiva, Urganch) keng tarqalgan klassifikatsiya sifatida koʻrsatiladi⁷.

Demak, kulolchilik maktablarining shakllanishi koʻp qirrali omillar bilan bogʻliq boʻlib, ular orasida xoʻjalik-madaniy tiplar konsepsiyasi muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Aynan shu omillarni oʻrganish orqali biz kulolchilik sanʼatining turli hududlarda qanday shakllanib, qanday lokal xususiyatlarga ega boʻlganini anglash imkoniyatiga ega boʻlamiz.

Qolaversa, kulolchilik anʼanalariga tayangan mahalliy maktablar, uslublar va texnologiyalarning shakllanishi madaniy muhitning uzviy qismidir. Shu bilan birga, turli mintaqalardagi kulolchilik maktablari mahalliy tabiiy sharoit, ijtimoiy ehtiyoj va madaniy anʼanalar taʼsirida oʻziga xoslik kasb etadi.

Shu tariqa, xoʻjalik-madaniy tiplar konsepsiyasi kulolchilik maktablarining shakllanish omillarini, ularning lokal xususiyatlarini hamda etnomadaniy jarayonlardagi oʻrnini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi.

⁷ Ўзбекистон маданий мероси. Германия Федератив Республикаси тўпламлари. — Тошкент: Silk Road Media; East Star Media, 2020. — XI ж.

Biroq, har bir markazda olib borilgan antropologik va madaniy-etnografik tadqiqotlar mazkur umumiy tasnifni yanada nozikroq o'rganishni talab etadi. Ya'ni, yirik maktablar doirasida ham har bir lokal markaz o'ziga xos uslubiy xususiyatlari, bezak elementlari va texnologik jarayonlari bilan ajralib turadi. Shu bois, so'nggi tadqiqotlarda kulolchilik maktablari lokal mintaqalarga bog'lab klassifikatsiya qilingan. Xususan, Xonqa, Kattbog', Xiva, Urganch, Buxoro, G'ijduvon, Nurota, Samarqand, Urgut, Shahrisabz, Boysun, Toshkent, Rishton, G'urumsaroy, Andijon kabi kulolchilik maktablari shular jumlasidandir.

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan ustaxonalar misolida Samarqand, G'ijduvon, Shahrisabz, Urgut, Xiva, Madir, Xonqa, Kattbog', Rishton, Andijon va G'urumsaroy kabi kichik mintaqalarda faoliyat olib borayotgan sulolaviy kulollar va shogirdlik darajasini o'tab ustaga aylanib, o'z uslubini yaratgan va yangi kulolchilik maktabiga asos solgan kulollar faoliyati alohida maktab sifatida tadqiq etilishi zarur. Ularning har biri o'ziga xos usta-shogird an'anasini saqlab qolgan bo'lib, nafaqat qadimiy hunarmandchilik merosini tiklash, balki uni zamonaviy sharoitda rivojlantirishga ham munosib hissa qo'shmoqda.

Bu borada antropologiya fani amaliy tadqiqotlarida keng qo'llaniladigan genealogik (ustoz–shogird va sulolaviy) yondashuv hunarmandchilikni, ayniqsa kulolchilik maktablarini tahlil qilishda juda qulay hisoblanadi. Chunki texnika, “sir” va uslublar ko'pincha matndan emas, avloddan-avlodga amaliy uzatish orqali davom etadi. Antropologiyada bu yondashuv asosan “bilimning tanaga singishi” (embodied knowledge) va “amaliy hamjamiyatlar” (communities of practice) kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Bilim ustaxonadagi ishtirok orqali o'zlashtiriladi, ko'p qismi og'zaki bayondan ko'ra qo'l harakati va ko'rish orqali uzatiladi⁸; hunar esa vaqt davomida odatlar va habitusga aylanadi⁹. Shuning uchun maktablarni shaxslar va shajaralarga bog'lab yozish uslubiy jihatdan to'g'ri deb xisoblendi. Qayd etish kerakki bu jarayon nafaqat tarixiy uzluksizlikni ko'rsatadi, balki uslubiy “imzo”larni, ustaxona ichidagi mehnat taqsimotini, migratsiya va savdo ta'sirlarini ham izchil ochib beradi.

Qayd etish kerakki, kulolchilik maktablarini tahlil etishda genealogik metodni qo'llash ikki xil yondashuv imkonini beradi. Xususan, ular hududiy yondashuv va shaxsiy, sulolaviy (genealogik) yondashuvlardir. Birinchi yondashuv — hududiy tasniflash bo'lib, unda kulolchilik maktablari asosan geografik hududlar bo'yicha, masalan, Rishton, G'ijduvon, Xorazm, Urgut, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent va

⁸ Polanyi M. *The Tacit Dimension*. — London: Routledge & Kegan Paul, 1966. — 108 p.

⁹ Bourdieu P. *Outline of a Theory of Practice*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977. — 248 p.; Sennett R. *The Craftsman*. — New Haven; London: Yale University Press, 2008. — 336 p.; Ingold T. *Making: Anthropology, Archaeology, Art and Architecture*. — London; New York: Routledge, 2013. — 162 p.

G'urumsaroy kabi markazlarda shakllangan ijodiy an'analar asosida guruhlanadi. Har bir hudud o'zining uslubiy xususiyatlari, texnik imkoniyatlari, rang va naqshlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u ma'lum hudud maktablarining umumiy manzarasini yaratadi va hududiy san'at maktablarini bir-biridan ajratishga imkon beradi.

Biroq, mazkur tasnif doimo izchil va to'liq natija bera olmaydi. Chunki ko'plab hollarda ustoz–shogird aloqalari hududiy chegaralardan tashqariga chiqib ketadi. Masalan, intervyular davomida aniqlanishicha, Rishtonda o'zining uslubini yaratgan, kulolchilikda sirlash texnologiyasi hamda an'anaviy ranglarni tiklashga katta hissa qo'shgan usta Sharofig'in Yusupov 1979-yilda ustachilik faoliyati davomida G'urumsaroyda faoliyat olib borgan ustalardan saboq olgan. U aynan shu davrda sirlash texnologiyasini qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan va bu xizmatlari uchun Sovet Ittifoqi hukumati tomonidan taqdirlangan.

Kulolchilik jarayonida hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari singari xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarda ko'plab maxsus ish jarayonlari mavjud. Ushbu ixtisoslashuv jarayoni 1930-yillardan boshlab aniq ko'rinish kasb etgan va hozirga qadar davom etmoqda. Har bir ish turining o'ziga xos ustalari mavjud bo'lib, ular orqali ixtisoslashgan hunar yo'nalishlarini o'rganish imkoniyati turli davrlarda bo'lgani kabi bugungi kunda ham mavjud.

Bir so'z bilan aytganda, ustoz–shogird an'anasi hududiy chegaralarni tan olmaydi. Shogirdlar o'z bilim va ko'nikmalarini ustozlardan o'rganib, boshqa hududlarda faoliyat boshlash jarayonida mavjud xom ashyo, mahalliy bozor talablari hamda mintaqaga xos an'anaviy qadriyatlardan kelib chiqib yangi maktablar shakllangan.

Ikkinchi yondashuv - shaxsiy (genealogik) tasnif bo'lib, usta va shogirdlarning uzviy genealogiyasini tiklashga asoslanadi. Bunda asosiy e'tibor ma'lum bir ustoz shaxsiga qaratiladi va uning ijodi, shogirdlari hamda keyingi avlod ijodkorlari orqali uzluksizlik kuzatiladi. Masalan, Rishton maktabi misolida mashhur ustozlardan Usta Abdullo, Usta Mayoqub, Usta Mazoirning shogirdlari va bugungi avlodlargacha ko'rinishida tahlil qilinadi. Bu yondashuvning ustunligi shundaki, u kulollik maktablarida uslubiy "imzo"ni, sulolaviy merosni hamda hunar sirlarining avloddan-avlodga o'tish mexanizmini aniqroq ochib beradi. Shu bilan birga, genealogik yondashuv hududiy tasnifdan biroz chekinadi, chunki usta-shogird zanjirida ko'pincha hududlararo almashuv sodir bo'ladi. Shunday hollarda shogirdni hududiy maktab emas, balki ustoz genealogiyasi doirasida baholash zarur bo'ladi.

Shu tariqa, kulolchilik maktablarini o'rganishda genealogik metodning ikki yondashuvi bir-birini to'ldiradi: hududiy yondashuv maktablarning umumiy makoniy

manzarasini ochib beradi, shaxsiy yondashuv esa maktablarning ichki uzviyligi va shaxsiy ijodiy merosini tiklash imkonini yaratadi.

Kulolchilik sohasini tadqiq qilishda uni oddiy hunar emas, balki xalqning madaniy xotirasi va ijtimoiy identitetining tarkibiy qismi sifatida baholash masalasi muhim o‘rin tutib, bu borada Oral History yondashuvini nazariy asos sifatida qayd etish mumkin. Qayd etish lozimki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab antropologiya va ijtimoiy tarix fanlarida Oral History (og‘zaki tarix) yondashuvi alohida metodologik yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu usul, avvalo, yozma manbalarda aks etmagan ijtimoiy jarayonlar va shaxsiy tajribalarni ilmiy muomalaga kiritish zarurati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lib, bu borada og‘zaki tarix usuli 1940-yillarda Kolumbiya universitetida faoliyat olib borgan Allan Nevins ishlaridan boshlanganligi e‘tirof etiladi¹⁰. Nevins birinchi bo‘lib tarixiy ahamiyatga ega deb topilgan xotiralarni maxsus magnitofonlarda yozib olish, saqlash va kelajak tadqiqotlari uchun foydalanish imkonini beruvchi tizimli ilmiy-amaliy usulni joriy etgan. U Prezident Grover Cleveland biografiyasini yozayotganida, Clevelandning hamkasblari yozma hujjatlar, maktublar, kundaliklar, xotiralar qoldirmaganini aniqladi. Bundan tashqari, davlat boshqaruvida byurokratiya kuchayib, hujjatlar bir xillashib borar, telefon yozishmalar o‘rnini egallab, shaxsiy yozuvlar kamayib ketayotgan edi. Shunda Nevins o‘sha davr voqealarida ishtirok etgan shaxslar bilan intervyu o‘tkazish orqali yozma manbalarni to‘ldirish g‘oyasini ilgari surdi. U 1948-yilda Nyu-York fuqarolik yetakchisi George McAneny bilan birinchi suhbatni yozib oldi va shu tariqa Columbia Oral History Research Office dunyodagi eng yirik og‘zaki tarix arxivi hamda zamonaviy og‘zaki tarix harakati vujudga keldi. Qayd etish lozimki, ilk loyihalar Kolumbiyada va boshqa joylarda asosan “elita” vakillari — biznes, siyosat, kasb va ijtimoiy hayotdagi yetakchilar hayotini hujjatlashtirishga qaratilgan bo‘lib, 1960–1970-yillarda jamiyatdagi ijtimoiy harakatlar va tarixchilarning “oddiy odamlar” tajribalariga qiziqishi ortishi natijasida og‘zaki tarixning ko‘lami kengaydi. Endi intervyular ishchi tabaqalardan, irqiy va etnik ozchiliklardan, ayollardan, mehnat va siyosiy faollardan, mahalliy jamoa vakillaridan olinadigan bo‘ldi.

XXI asrga kelib, og‘zaki tarix usuli olimlar tomonidan keng qo‘llanila boshladi, xususan, Paul Thompson va Alessandro Portellilarning asarlari.¹¹ og‘zaki tarixning

¹⁰ Shopes, L. Making Sense of Oral History [Elektron resurs] / L. Shopes // History Matters: The U.S. Survey Course on the Web. — [Arlington, VA] : George Mason University, 2002. <http://historymatters.gmu.edu/mse/oral/> (murojaat vaqti: 26.08.2025).

¹¹ Thompson P. The Voice of the Past: Oral History / П. Томпсон, Д. Борнат. — Oxford : Oxford University Press, 2017. — 484 с. — ISBN 978-0190671587; Portelli A. The Death of Luigi Trastulli and Other Stories: Form and Meaning in Oral History / А. Портелли. — Albany, NY : State University of New York Press, 1991. — xvi, 341 с. — ISBN 978-0791404300.

nazariy asoslarini mustahkamlab berdi. Jan Vansina¹² esa og‘zaki an‘analarni tarixiy manba sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari bilan bu yondashuvni yanada rivojlantirdi. Olimlarning umumiy xulosasiga ko‘ra, og‘zaki tarix jamiyat a‘zolarining xotira va hikoyalarini tadqiq etish orqali nafaqat faktlarni, balki voqealarning subyektiv talqinini ham yoritish imkonini beradi.

XULOSA

Ta‘kidlash joizki, an‘anaviy kulolchilik maktablarining shakllanishi va rivojida yozma manbalardan ko‘ra ustoz-shogird an‘analari, ustalar hikoyalari va hunar bilan bog‘liq rivoyatlar muhim manba vazifasini o‘taydi. Masalan, “Risola” tartib-qoidalarining qo‘llanishi, kasb etikasi, ustozning shogirdga duosi yoki kasb sirlarini faqat avlodga berish odati asosan og‘zaki shaklda saqlanib kelgan. Shu nuqtai nazardan, og‘zaki tarix yondashuvi kulolchilik fenomenini o‘rganishda asosiy nazariy metodlardan biri bo‘lib, u hunarning avloddan-avlodga o‘tishini, kulol shaxsining ijtimoiy mavqeini va kasbiy identitetini yoritishda beqiyos ahamiyatga ega. 2024 yil 27-iyul kuni Rishton tumanida mashhur usta Sharofiddin Yusupov bilan o‘tkazilgan suhbat intervyu shaklida yozib olindi. Suhbat davomida respondentga kulolchilik “sirlari” haqida so‘zlab berish mazmunida savol yo‘naltirildi. Savolga javob berar ekan, Sh. Yusupov ustozlaridan eshitgan voqeani eslab o‘tdi. Hikoyaga ko‘ra, usta kulolning bir shogirdi iqtisodiy mustaqillikka erishish niyatida ustozidan duo so‘rab, alohida faoliyat boshlash istagini bildiradi. Ustoz esa shogird hali egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar mavjudligini ta‘kidlab, uni bir muddat o‘z xizmatida qolishga da‘vat etadi. Biroq shogird o‘zini hunarda to‘liq yetuk deb hisoblab, takroran duo so‘raydi. Ustoz istar-istamas unga duo beradi. Mustaqil faoliyatni boshlagan shogird tayyorlagan buyumlarini xumdonda pishirganda ularning barchasi yaroqsiz holda chiqadi. Natijada shogird ustoz huzuriga qaytib, yana bir muddat uning xizmatida bo‘ladi. Vaqt o‘tib, ustoz shogirdidan ko‘ngli to‘lib, unga kasbning eng nozik jihati - sirini oshkor etadi¹³. Ma‘lum bo‘lishicha, usta kulolning sirlaridan biri buyumlarni humdonga qo‘yishdan avval ulardagi changni kuchli nafas yordamida puflab tozalash bo‘lgan. Shundan keyin shogird mustaqil faoliyatni qayta boshlagan va yuqori sifatli mahsulotlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Mazkur rivoyat shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik singari boshqa hunar turlarida ham ustoz-shogird munosabatlari qat‘iy me‘yorlar asosida shakllangan. Har bir usta o‘z hunar sirlarini shogirdga darhol bermagan, balki uni sinovlardan o‘tkazgan.

¹² Vansina J. Oral Tradition as History / J. Vansina. — Madison : University of Wisconsin Press, 1985. — 320 c. — ISBN 9780299102145.

¹³ Etnotravel Uzbekistan. Kulol siri [Elektron resurs]. — YouTube. — URL: <https://www.youtube.com/watch?v=uv2NnRboXw&t=252s> (murojaat vaqti: 26.08.2025).

Natijada faqat ustozning ishonchini qozongan shogirdgina kulolchilikning nozik sir-asrorlarini egallash imkoniyatiga ega bo'lgan.

Anglash mumkinki, antropologik nuqtai nazardan og'zaki tarix yondashuvi kulolchilikni nafaqat moddiy buyumlar ishlab chiqarish jarayoni, balki ijtimoiy institut va madaniy meros sifatida talqin etish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali kulollarning xotiralari, ularning shaxsiy hayotiy tajribalari va jamiyatlardagi roli bir butun ilmiy tizimda o'rganiladi. Natijada kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy funksiyalari - kasb davomiyligi, identitet shakllanishi, gender rollari va ramziy qadriyatlari - yanada chuqurroq ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shopes, L. Making Sense of Oral History [Elektron resurs] / L. Shopes // History Matters: The U.S. Survey Course on the Web. — [Arlington, VA] : George Mason University, 2002.
2. Thompson P. The Voice of the Past: Oral History / П. Томпсон, Д. Борнат. — Oxford : Oxford University Press, 2017.